

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASIGA OID AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI TAHLILI



Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich
yuridik fanlari doktori, professor



Murodov Alisher Sharofxonovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'ravonlikning profilaktikasini samarali tashkil etish yuzasidan ba'zi fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, oila, zo'ravonlik, tazyiq, huquqbuzar, jabrlanuvchi, huquqiy targ'ibot, maishiy nizo, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

АНАЛИЗ ОПЫТА НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРИТЕСНЕНИЙ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. В статье высказаны мнения и замечания по эффективной организации профилактики домашнего насилия и насилия в отношении женщин.

Ключевые слова: женщины, семья, насилие, домогательство, правонарушитель, потерпевший, адвокатская защита, бытовой спор, профилактика правонарушений..

ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES IN PREVENTING HARASSMENT AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abstract. The article expresses opinions and comments on the effective organization of the prevention of domestic violence and violence against women.

Keywords: women, family, violence, harassment, offender, victim, lawyer's defense, domestic dispute, prevention of offenses..

So'nggi paytlarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlari tobora ortib borayotganligi, uning natijasida oilaviy ajrimlar va shaxsga qarshi jinoyatlar soni ko'payib ketganligini kuzatish mumkin. Bugungi kunda tahlilchi-ekspertlar fikriga ko'ra, xotin-qizlarga nisbatan

zo'ravonlik inson huquqlari buzilishi va sog'liqni saqlash muammosi sifatida qaralmoqda [1].

Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki uning barvaqt oldini olish, shaxsni turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, huquqbuzarliklardan jabrlanishi mumkin bo'lgan shaxslar bilan manzilli

profilaktik ishlarni olib borish, viktimlik holatlarini kamaytirish maqsadida fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksaltirish, huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan profilaktika choralarini ko'rish dolzarb masalaga aylanganligi jinoyatchilikni ilmiy tahlil qilishning g'oyat zarurligini ko'rsatadi. Bunda ilmiy bilishning mantiqiy, tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy sotsiologik tahlil usullari hamda induksiya, deduksiya, analiz va sintez metodlaridan samarali va ununmli foydalanish zarur.

O'rganilgan ayrim davlatlar, jumladan G'arbiy Yevropa davlatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Shvetsiya, Italiya, shuningdek AQSH, Kanada va Yaponiyada shaxsni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha viktimologik profilaktika ancha rivojlangan. Mazkur davlatlar tajribasida nafaqat viktimologiyaning nazariy muammolari, balki ushbu yo'nalishning amaliy jihatlar ustida ham ularni takomillashtirish maqsadida faol tadqiqotlar amalga oshirilgan [2].

Yevropaning ko'pgina davlatlarida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qiladigan assotsiatsiyalar tomonidan viktimologik profilaktika chora-tadbirlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi natijasida oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning sodir etilish ko'rsatkichi ancha past [3]. Bundan tashqari, ushbu yo'nalishda samarali choralar ishlab chiqish uchun aholi o'rtasida so'rovlar o'tkaziladi va ushbu turdagi jinoyatlar latentligining oldini olishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ta'kidlash joizki, oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan va undan jabrlangan shaxslarni o'rganish jinoyatchilik darajasi past ko'rsatkichga ega bo'lgan barcha davlatlarning amaliyotida mavjud.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda shaxsning viktimligini keltirib chiqaruvchi omillarni hamda jabrlanuvchi shaxslarning xulq-atvorini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham jinoyatchilik darajasi past bo'lgan ko'pgina davlatlarda jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi markazlar yoki

ularni tadqiq etuvchi ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat yuritmoqda. Misol uchun, Niderlandiyada «Jabrlanuvchi shaxslarni himoya qilish milliy tashkiloti» (National Organisation for Victim Support (NOVS) faoliyat yuritadi, AQSHda esa mazkur vazifani «Jabrlanuvchi shaxslarga yordam ko'rsatish milliy markazi» [4] amalga oshiradi.

Buyuk Britaniyada 1979-yilda tashkil etilgan «Jinoyatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash milliy assotsiatsiyasi» (National Association of Victim Support Schemes) hozirgi kungacha samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur tashkilot aholining jinoyatlardan jabrlanishining oldini olish borasida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqib, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish borasida faoliyat olib boradi. Ushbu faoliyat asosan aholini hushyorlik va ogohlikka chaqirish bilan birga, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, jabrlanuvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun bu tashkilotlar hukumat vakillari bilan rasmiy uchrashuvlar va suhbatlar uyushtiradi, qonun loyihalarini tayyorlashda yordam ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini o'rganadi hamda davlatning yuqori darajadagi shaxslari bilan uchrashuvlar o'tkazilishini tashkillashtiradi [5]. Mazkur faoliyat shaxsning jinoyatdan jabrlanishining oldini olish va jinoyatlarning barvaqt profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan xorijiy davlatlarda jinoyatlarning oldini olish, ya'ni profilaktika faoliyatiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib, bunda asosan tizimli va kompleks yondashuv asosida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda kuch va vositalardan samarali foydalanish, viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish, fuqarolarning ogohligini va hushyorligini ta'minlash kabilarga alohida e'tibor qaratiladi [6].

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya tajribasi o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Hozirda dunyoning yuzdan ortiq davlatlarida xotin-qizlarni tazyiq va

zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilingan bo'lib, ushbu turdagi profilaktika ishlarini olib borish bir qator tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarga tibbiy, ruhiy, huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus boshpanalar tashkil etilgan hamda uning profilaktikasi bo'yicha samarali faoliyatni tashkil etish mexanizmlari yaratilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha katta ijobiy tajriba mavjud. Jumladan, AQSHda 1994-yilda "Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurash haqida"gi [7] qonun qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, AQSHda mazkur qonunning qabul qilinishi bilan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar uchun ijtimoiy, huquqiy, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish maqsadida reabilitatsiya markazlari ochilishi boshlangan hamda zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan yuzlab dasturlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi ishonch telefonlari tashkil etilib, kecha-yu kunduz ularning faoliyat ko'rsatishi va mutaxassis operatorlar tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga bepul yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar milliy tarmoqda tashkil etilgan quyidagi yo'nalishlardagi ishonch telefonlariga qo'ng'iroq qilishlari mumkin:

- a) tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan hol-larda yordam so'rab yoki muammoning yechimini topish yuzasidan;
- b) jinsiy zo'ravonlikdan jabrlanganda yoki jabrlanish xavfi yuzaga kelganda;
- v) oilada bolalarga nisbatan shafqatsiz muo-mala qilinganida;
- g) tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxs-larni ijtimoiy reabilitatsiya qilish masalalarida va boshqalar [8].

AQSHda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1,5 mingdan ortiq reabilitatsiya markazlari, alohida uylar tashkil etilgan [9] bo'lib, ushbu markazlarga, asosan, oiladagi zo'ra-vonlikdan jabrlangan shaxslar, jumladan uyida oila a'zolari tomonidan kaltaklangan, xo'rlangan, jabr-zulmga duchor bo'layotgan ayollar, qariyalar, voyaga yetmaganlar murojaat qiladilar.

Ta'kidlash kerakki, tazyiq va zo'ravonlik harakatlari natijasida davlatlar ham insoniylik nuqtayi nazaridan, ham iqtisodiy jihatdan jiddiy zarar ko'rmoqda. Misol uchun, har yili zo'ravonlik orqali dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga mil-liardlab AQSH dollari miqdorida zarar yetka-zilmoqda [10].

Kanada davlatida oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish bo'yicha yetakchi davlat sifatida tan olingan. U o'zining federal va shtat qonunlari, shu-ningdek, ushbu yovuzlikka qarshi kurashishga qaratilgan mahalliy ijtimoiy dasturlari bilan mash-hur [11]. Kanada hukumati tomonidan 1998-yilda "Oiladagi zo'ravonliklarga qarshi kurashish to'g'-risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga muvofiq uchta himoyalanish shakli, ya'ni xavfsizlik buyrug'i (zudlik bilan yordam kerak bo'lganda), qirollik sudining himoya qilish tartibi, uy-joyga kirish huquqini beruvchi orderlar mavjud. Bundan tashqari, ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarning oldini olish maqsadida davlat byudjetidan mahalliy tashkilotlar uchun kichik grantlar tashkil etilib, bu kabi salbiy holatlarning oldini olishda profilaktik choralar qo'llanilmoqda [12].

Kanada davlatida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha quyi-dagi tajribalar mavjud:

- 1) tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxs-lar uchun reabilitatsiya markazlari aholi sonini inobatga olgan holda tashkil etilib, ularning sa-marali faoliyat ko'rsatishi yo'lga qo'yilgan;
- 2) Sog'liqni saqlash vazirligida oiladagi zo'-ravonlikdan jabrlanishni tahlil qilib boradigan markaz faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning aha-miyati shundaki, birinchidan, tazyiq va zo'ravon-likning latentligini oldini oladi, ikkinchidan tazyiq

va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy jazo chorasini ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi;

3) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida har yili oiladagi nizolarning salbiy oqibatlarini ko'rsatuvchi yuzlab film, videorolik va reklamalar tayyorlanadi va namoyish etiladi;

4) tazyiq va zo'rlikdan jabrlangan shaxslar o'rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash maqsadida psixologik mutaxassislar ishtirokida treninglar tashkil etiladi;

5) huquqbuzar shaxslarning xulq-atvorini tuzatishga yo'naltirilgan tuzatish dasturlari orqali ularni sog'lom turmush-tarziga yo'naltirish;

6) tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish amalga oshiriladi [13].

Buyuk Britaniyada kriminal xavfsizlikning minimal standarti ishlab chiqilgan bo'lib, aholining politsiya bilan hamkorlik qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni tezkor oldini olish choralari ko'riladi. Bundan tashqari, "Jinoyatdan jabr ko'rganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha dastur" ishlab chiqilgan. "Qanday qilib jinoiy tajovuzdan o'zimni, oilamni, turar joyimni, mulkimni himoya qilishim mumkin" degan mavzularda ommabop maqolalar, qo'llanmalar nashr etilgan, "Jinoyatdan jabrlanganlar uyushmalari" [14] shakllantirilgan.

Britaniya davlatida oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanishlarning oldini olish borasida ishonch telefonlari ham mavjud bo'lib, ular nafaqat ayollar va bolalar, balki oilaviy muammolarni hal etishga qiynalayotgan erkaklar uchun ham faoliyat yuritadi. Shuningdek, Britaniyada bir necha tillarda oiladagi zo'ravonlik holatlarining oldini olish usullari va lozim bo'lgan harakatlar yuzasidan qo'llanmalar chop etilgan bo'lib, ushbu choralar ham ayollar huquqlarini o'z vaqtida himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mazkur davlatda oilaviy ajrimdan so'ng aliment to'lash imkoniyati cheklangan shaxslar uchun

maxsus jamg'arma tashkil etilgan bo'lib, unda aliment to'lanmagan barcha oylar uchun to'lovni amalga oshirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan [15].

Fransiyada 2010-yil 9-iyulda qabul qilingan "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik hamda uning bolalarga salbiy oqibatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, qonunda ayollarni himoya qilish mexanizmlari va ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning vakolat va vazifalari belgilab berildi [16]. Shuningdek, Fransiyada oiladagi zo'ravonlikdan yordam so'rab murojaat qilish mumkin bo'lgan markazlar hamda qisqa ishonch telefonlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Fransiya qonunchiligida uning hududida istiqomat qiluvchi shaxslarga bepul yuridik yordam ko'rsatiladi. Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha sud ishlari "maxsus ishlar" deb tasniflanadi. Bunday hollarda, hatto yashash uchun ruxsatnomasi bo'lmagan chet el fuqarolari ham bepul advokat olish huquqiga ega. Albatta, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi arizani to'ldirish lozim bo'ladi.

Fransiyada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi amaliyot mavjud:

- aholi o'rtasida oiladagi zo'ravonlik yuzasidan so'rovlar o'tkaziladi va ular tahlil qilib boriladi;

- oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlar ro'yxatlari tuzilib, ular bilan ruhshunoslar muntazam ravishda ishlarni tashkil etib boradi;

- zo'ravonlikka duchor bo'layotgan va bo'lgan shaxslar uchun vaqtinchalik boshpana-manzilgohlar faoliyati tashkil etilgan;

- oiladagi nizoli holatlar hamda undan jabrlangan shaxslarning yuzaga kelgan muammoni ijobiy hal etishlariga ko'maklashuvchi ishonch telefonlari mavjud.

Fransiyada oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha tegishli yillar uchun 70–80 million yevro miqdorda mablag' ajratiladi va bunda quyidagi uchta asosiy vazifani hal qilish nazarda tutiladi:

- sodir etilgan zo'ravonlik haqidagi biron-bir xabar javobsiz qolmasligi kerak. Bu 2014-yilning

yanvar oyidan boshlab haftasiga 7 kun ishlaydigan, zo'ravonlik jabrlanuvchilariga ma'lumot berish va yordam ko'rsatish uchun yagona 3919-raqamli ishonch telefoni joriy etilgan;

- polisiya va jandarmeriya faoliyatiga jalb qilingan ijtimoiy ishchilar kvotasini ko'paytirish belgilab berilgan;

- zo'ravonlikdan jabrlanib jiddiy xavf ostida qolgan ayollarni himoya qilish maqsadida reabilitatsiya markazlari joriy qilingan;

- oiladagi zo'ravonlikning oldini olishning samarali yo'llaridan biri sifatida ilg'or ish usullari va tajribalari amaliyotga joriy etilgan;

- zo'ravonlikning yanada samarali oldini olish uchun jamiyat va barcha davlat xizmatlarini safarbar etiladi;

- ayollarga nisbatan zo'ravonlik profilaktikasi bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish va uni rivojlantirish alohida e'tibor qaratiladi;

- xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha idoralararo chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish keng yo'lga qo'yilgan.

Germaniyada qiyin hayotiy vaziyatlarga duchor bo'lgan, zo'ravonlik va turli qiyinchiliklarga uchragan ayollar uchun "Ayollar uylari" (Frauenhäuser), yuzlab maslahat markazlari, kunduzgi psixologik yordam hamda 360 dan ortiq ijtimoiy yordam markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, qiyin ahvolga tushib qolgan jabrlanuvchilar uchun yordamga chaqirish maxsus telefon – "110" xizmati keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu raqamdan chaqiruv signali ketishi bilan shaxsning joylashgan joyi aniqlanadi hamda zudlik bilan politsiya xodimlari yuborilishi nazoratga olingan [17]. Bu kabi zo'ravonlik va jinoyat sodir etgan shaxslar o'zlari yashayotgan xonadonlardan chiqarib yuboriladi, ularning jabrlanuvchiga yaqinlashishi, telefon orqali so'zlashuv yoki xabarlar yuborishi taqiqlanadi. Binobarin, jabrlanuvchining turmush o'rtog'i shunday holatlarni sodir etgan taqdirda oilani moliyalashtirish majburiyati yuklatilgan. Bu amaliyot esa ayollarning iqtisodiy qaramligini bartaraf etish uchun xizmat qilmoqda.

Germaniyada fuqarolarga o'zini o'zi himoya qilish usullarining o'rgatilishi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan va shaxsning jinoyatdan jabr ko'rib qolmasligi uchun amaliyotga joriy etilgan. Shuning uchun o'quv muassasalarida "Viktimologiya asoslari" nomli o'quv kursi o'qitiladi. Ayniqsa, Germaniyaning ko'plab viloyatlarida davlat dasturlari bilan bir qatorda, jinoyat qurbonlariga yordam berish uchun ko'plab xususiy dasturlar mavjud. Ularda jinoiy tajovuzlardan, shu jumladan jinoiy tajovuzdan zarar ko'rgan shaxslarga xavfsizlikni ta'minlash hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalariga oid qonun va sud amaliyotidagi o'zgarishlar batafsil tahlil qilinadi.

Germaniyada jinoyatdan jabrlanganlarga yordam beruvchi jamoat birlashmasi (Beloye kolso)ning bugungi kunda 3 mingdan ortiq o'z xohishi bilan ko'mak beruvchi yordamchilari, 400 dan ortiq filiallari, 60 mingga yaqin a'zolari bo'lib, qurbonlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha har qanday, jumladan, siyosiy, huquqiy, boshqaruv sohasidagi va boshqa savollarga javob beriladi, shuningdek ular jinoyatdan jabrlanganlarga davlat tomonidan berilishi lozim bo'lgan kompensatsiyalar bilan bog'liq muam-molarga ham aralashadi va jabrlanuvchilar foydasiga hal qilishadi [18].

Argentinada politsiyachi ayollar va maxsus guruhlar aholi o'rtasida zo'ravonlik masalalari yuzasidan muntazam ravishda so'rovnomalarni o'tkazib, qaysi hududda zo'ravonlik ko'payganligini tahlil qilib boradi. Ayollar politsiya uchastkalarida faoliyat yuritishi davomida o'sha hududda yashovchi oilalarning xavfsizligini ta'minlashga va oiladagi nizolarni hal etishga mas'ul hisoblanadi.

Mazkur davlatda tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi amaliyot mavjud:

- aholi o'rtasida oiladagi zo'ravonlik yuzasidan so'rovlarni o'tkaziladi va tahlil qilib boriladi;

- oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlar ro'y-xatlari tuzilib, ular bilan psixologlar muntazam ravishda ishlarni tashkil etib boradi;

- zo'ravonlikka duchor bo'layotgan va bo'lgan shaxslar uchun vaqtinchalik boshpana-manzil-gohlar faoliyati tashkil etilgan;

– oiladagi nizoli holatlar hamda undan jabrlangan shaxslarning yuzaga kelgan muammoni ijobiy hal etishlariga ko'maklashuvchi ishonch telefonlari mavjud [19].

Avstraliyada politsiya oilada sodir etilgan zo'ravonlik bo'yicha xabar tushgach mutaxassislarni va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashuvchi xizmat xodimlarini chaqiradi. Xizmat doimiy faoliyat ko'rsatadigan alohida mustaqil organ hisoblanadi. Uning mutaxassislari politsiyachilar bilan birga voqea yuz bergan joyga keladi. Ular jabrlanuvchiga yordam ko'rsatadi hamda oiladagi voqealarning keyingi holatini kuzatib boradi va axborot xizmatlarini ko'rsatadi. Bunday amaliyot politsiyaga huquqbuzarlikka e'tiborni qaratish va boshqa muammolarni yechishga kuch sarflamaslik imkonini beradi [20].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib Ukrainada "Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida" [21] qonun qabul qilingan bo'lib, unda tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlar tizimi belgilangan hamda qonun talablari asosida jabrlanganlar uchun reabilitatsiya markazlari tashkil etilgan. Shuningdek, qonunda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga psixologik, tibbiy, huquqiy yordam ko'rsatish, oilaviy nizolarni hal qilish yo'llari, tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar ro'yxatini yuritish va ularni hisobga olish, zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borishning tartib qoidalari belgilangan [22].

Moldova Respublikasi ham oiladagi zo'ravonlik profilaktikasi bo'yicha yetakchi davlatlardan hisoblanadi. Xususan, ushbu davlatda 2007-yil 1-martda "Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va uni to'xtatish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Qonunning 2-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo'lib, unda oiladagi zo'ravonlikka oid 13 ta tushuncha qayd etilgan. Qayd etish kerakki, ko'pgina davlatlarning ushbu turdagi qonunlarida "moddiy zarar", "ruhiy zarar" tushunchalari mavjud emas. Ushbu davlatning qonunchiligida esa oiladagi zo'ravonlikka oid bo'lgan barcha tushunchalar batafsil belgilab berilgan. Bundan

tashqari, ta'limni boshqarish organlarini oiladagi zo'ravonlikning oldini olishdagi mas'uliyati va vakolatlari, shaxsni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish usullari hamda jabrlanganda ariza bilan murojaat etish tartiblari ko'rsatib o'tilgan. Moldovada oiladagi zo'ravonliklardan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatuvchi markazlar faoliyati tashkil etilgan bo'lib, ushbu markazga murojaat etgan shaxslarga tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish amaliyoti joriy qilingan [23].

Qozog'istonda 2016-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga asosan 2030-yilgacha bo'lgan "Oilaviy va gendir siyosati to'g'risida"gi [24] konsepsiya ishlab chiqilib, unda oiladagi barcha zo'ravonliklarga qarshi kurash masalalari nazarda tutilgan.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasida "Maishiy turmushdagi zo'ravonliklarning oldini olish to'g'risida"gi [25] qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunda "maishiy zo'ravonlik" tushunchasi, turlari, uning oldini oluvchi subyektlarning funktsiya va vazifalari, vakolatlari, maishiy zo'ravonlikni oldini olishning umumijtimoiy va maxsus choralari, o'tkaziladigan profilaktik chora-tadbirlar va uning turlari, zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya markazlari, ularning vazifalari, markazga murojaat etgan shaxslarning u yerda vaqtincha bo'lish tartibi, ushbu toifadagi shaxslarga psixologik, tibbiy, ruhiy yordam ko'rsatish mexanizmlari belgilab berilgan.

Qirg'izistonda "Oilada zo'rlik ishlatishdan ijtimoiy-huquqiy muhofaza etish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonunda xavfsiz joy, maslahat-profilaktika markazi, himoya orderi, ijtimoiy yordam, oiladagi zo'ravonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy, iqtisodiy turlari, oilada zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsning huquqlari, maishiy zo'ravonlikning oldini oluvchi subyektlar, ularning vazifalari, maishiy zo'ravonlikning profilaktikasi, undan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi reabilitatsiya markazlari, ularning vazifalari, markazga murojaat etgan shaxslarning u yerda vaqtincha bo'lish tartibi belgilangan.

Qirg'iziston Respublikasida 2009-yilda ichki ishlar organlari tomonidan giyohvandlikka va psixotrop moddalarga ruju qo'ygan ayollarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish maqsadida birinchi marotaba ijtimoiy yotoqxona tashkil etilib, unda 2 oy mobaynida davolash va profilaktika ishlari tashkil etilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunda mazkur yotoqxona o'zining samarasini bermoqda, ya'ni ko'plab ayollar sog'lom turmush tarziga qaytarilmoqda.

Tojikiston Respublikasida ham 2013-yil 19-martda "Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonunda oiladagi zo'ravonlik turlari, zo'ravonlikning profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi subyektlar, ularning vazifa va vakolatlari, oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya markazlari, oilada zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktik ishlar, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan sudning rasmiy ogohlantirishini qo'llash kabi choralar qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy davlatlar tajribasi hamda mamlakatimizdagi ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik profilaktikasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarni aniqlab, ularga tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko'rsatish;
- og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatish;
- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik profilaktikasi borasidagi hamkorligini kuchaytirish;
- oilada nizoli vaziyatlar chiqishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni tahlil qilish;
- ommaviy axborot vositalari orqali xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.



Foydalanilgan manbalar

1. Ahmad J., Khan M. E., Mozumdar A., Varma D. S. Gender-based violence in Rural Uttar Pradesh, India: prevalence and association with reproductive health behaviors // Journal Interpers Violence. – 2016. – № 31. – P. 312.
2. Майоров А.В. Международный опыт защиты жертв преступлений // Наука ЮУрГУ: Материалы 66-й научной конференции Секции социально-гуманитарных наук. – 2019. – С.112.
3. Шевцов А.В. Зарубежный опыт применения мер административного принуждения // Академическая мысль. – 2020. – № 1 (10). – С. 83.
4. Майоров А.В. Международный опыт защиты жертв преступлений (Научная статья) // Материалы 66-научной конференции Южно-Уральского государственного университета (апрель 2014 года): веб-сайт – <http://www.susu.ac.ru>.
5. Коновалова И.А. Виктимологическая стойкость как способ предупреждения преступлений несовершеннолетних // Электронный журнал «Вестник Московского государственного областного университета». – 2012. – №1: веб-сайт – <http://www.evestnik-mgou.ru>.
6. Жерновой М.В., Бутков А.В. Некоторые особенности профилактики правонарушений в зарубежных странах // Вестник Сибирского юридического института МВД России. – Сибирь, 2008. – №1. – С.67–70.
7. (VAWA).ViolenceAgainstWomenAct.
8. https://travel.state.gov/content/dam/visas/IMBRA/IMBRA_uzb.pdf.
9. Fang X, Brown DS, Florence CS, Mercy JA. The economic burden of child maltreatment in the United States and implications for prevention. Child Abuse and Neglect 2012; 36:156-165.
10. Reabilitatsiya va moslashtirish markazlaridagi tazyiq va zo'rvonlik jabrlanuvchilariga birlamchi yordam ko'rsatish: Amaliy qo'llanma / D. Abulxasan, G.A. Ishanxanova, N.N. Shotursunova va boshq. –T.: Baktria press, 2021. – 25 b.
11. <http://www.owl.ru/win/research/kanada.htm>.
12. Исаков А.А. Криминологическая характеристика и предупреждение насильственных преступлений, совершаемых в семье: Автореф. дис. ... кан. юрид. наук. – М., 2004. – С. 9.
13. Murodov A., Qosimov N. Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarida jabrlanuvchi tushunchasi va jabrlanuvchilar tipologiyasi // O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. –T., 2023. – B. 46.
14. Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri (PhD) ... dis. – T., 2020. – B. 116.
15. Tursunov A., Murodov A. Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikning profilaktikasi: Fransiya tajribasi // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Axborotnomasi, 2022. – № 4. (55-son). – 110–116 b.
16. <https://www.sovetnik.fr/zashhita-zhenshin-semejnogo-nasiliya-franczii/>
17. Supporting victims of crime in England and Wales: Local commissioning meeting local needs? - Matthew Hall, 2018. <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0269758017747055>.
18. Защита потерпевших благородная работа // Фонд поддержки пострадавших от преступлений. [Электронный ресурс]. Режим доступа: Soprotivlenie.org. // (дата обращения: 15.11.2022).
19. Майоров А.В. Международный опыт защиты жертв преступлений // Материалы 66-научной конференции Южно-Уральского государственного университета (апрель 2014 года): веб-сайт – <http://www.susu.ac.ru>.
20. Огай Д. Международно-правовые аспекты защиты прав детей // Bolalarni ijtimoiy himoyalash: kuratorlik funksiyalarini takomillashtirish istiqbollari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2007. – B. 274–281
21. Ukraina davlatining 2001-yil 15-noyabrdagi “Oiladagi zo'rvonlikning oldini olish to'g'risida”gi qonuni.
22. http://kodeksy.com.ua/ka/o_preduprezhdennii_nasilija_v_semje.htm.
23. Qozog'iston Respublikasining 2016 yil 9-avgustdagi “2030 yillar uchun Oilaviy va gendir siyosati to'g'risida”gi konsepsiyasi
24. Qozog'iston Respublikasining 2017-yil 11-iyuldagi “Maishiy turmushdagi zo'rvonlikni oldini olish to'g'risida”gi qonuni.
25. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30525680#pos=221;-88.